


**BUILDERS OF THE FUTURE**

journal homepage:
<https://kelajakbunyodkori.uz/>

**THE PERSIAN LAYER IN UZBEK LITERARY TEXTS: A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE NOVEL “SCORPION FROM THE ALTAR”**

Noziya Davlatova

Graduate School of Iranian and Afghan Studies

1st-year student, Persian–English group

Tashkent State University of Oriental Studies

noziyadavlatova09@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

D. Ahmedova

Associate Professor, Graduate School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies, Doctor of Philology

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Abdulla Qodiriy, Persian language, Persian-Tajik, lexicon, term, phrase.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: The language of Abdulla Qodiriy’s works, as a key representative of the fifth school of world novel-writing, serves as an important source for understanding the historical context of the period, the characters’ personalities, and the lexical layers of the Uzbek language. The analysis of Persian lexemes in the novel “The Scorpion from the Altar” provides a foundation for comprehensive reflections on the socio-cultural environment of 19th-century Zulnisayn.

O‘ZBEK BADIY MATNIDA FORSIY QATLAM: “MEHROBDAN CHAYON” ROMANI LINGVISTIK TAHLILI

Noziya Davlatova

1-kurs fors-ingliz guruhi talabasi

“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

noziyadavlatova09@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

D. Ahmedova

TDSHU, “Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy

maktabi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Abdulla Qodiriy, fors tili, fors-tojik, leksika, termin, birikma.

Annotatsiya: Jahon romanchiligining beshinchi maktabiga asos slogan Abdulla Qodiriy asarlarining tili davr tarixiy muhiti, qahramonlar xarakteri, oʻzbek tilining leksik qatlamlari haqida aniq tasavvur yaratadigan muhim manba hisoblanadi. “Mehrobdan chayon” romanidagi forsiy leksemalar tahlili XIX asr zullisinaynlik muhitidagi holat haqida mushohadalarimiz toʻliq boʻlishiga asos yaratadi.

**ПЕРСИДСКИЙ СЛОЙ В УЗБЕКСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ:
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РОМАНА « СКОРПИОН ИЗ АЛТАРЯ»**

Нозия Давлатова

Студентка 1 курса, группа «Персидский – английский»

Высшая школа иранских и афганских исследований

Ташкентский государственный университет востоковедения

noziyadavlatova09@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Д. Ахмедова

Доцент Высшей школы иранских и афганских исследований

Ташкентского государственного университета востоковедения

Доктор филологических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Абдулла Кадырий, персидский язык, персидско-таджикский, лексика, термин, выражение.

Аннотация: Язык произведений Абдуллы Кадырия, как ключевого представителя пятой школы мировой прозы, является важным источником для понимания исторического контекста эпохи, характера героев и лексических слоев узбекского языка. Анализ персидских лексем в романе «Скорпион из алтаря» создаёт основу для полноценных размышлений о социокультурной среде XIX века в Зулнисайне.

Kirish. XX asr boshlarida jadidchilik gʻoyasi keng tarqalgan, har bir yoʻnalishda yangilanish yuz berayotgan bir davr edi va bu oʻzgarish oʻzbek adabiyotiga ham bevosita taʼsir qilgan. Abdulla Qodiriy - oʻzining yuksak maʼnaviy adabiy-estetik tafakkuri bilan XIX-XX asr xonliklar davri hayotini tasvirlovchi bir qancha durdona asarlar yaratdi, roman janrini yangi bosqichga olib chiqqan adib sifatida tanildi. Uning ijodi nafaqat oʻsha davr, balki bugungi kun uchun ham muhim manbaa hisoblanadi, sevib mutolaa qilinadi.

“Mehrobdan chayon” tarixiy romani gʻoyaviy-badiiy qiymati bilan bir qatorda til xususiyatlari va jamiyatdagi oʻrni bilan ham alohida ahamiyatga ega. Asarda, ayniqsa, xalq ogʻzaki nutqida fors-

tojik tilidan o'zlashgan termin, ibora va so'z birikmalari ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo hududida fors tili nafaqat madaniy elitaning so'zlashuv tili hamda badiiy adabiyot, balki ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy va ma'rifiy-maishiy sohalarda ham keng miqyosda qo'llanilgan. Xususan, xonliklar davrigacha fors-tojik va turkiy tillarning asrlar davomida yonma-yon rivojlanib, til qatlamlarida kuchli o'zaro ta'sir yuzaga kelgan. Abdulla Qodiriy ana shu tarixiy til muhitini chuqur his etgan holda, roman tiliga fors-tojik unsurlarini tabiiy va o'rinli tarzda singdirgan.

Adabiyotshunos Hotam Umurovni ta'kidlashicha: "Ijodkorning asosiy quroli so'z, nutqdir. Badiiy asarning jozibasi, sermazmunligi va puxtaligi birinchi galda, yozuvchi nutqining rang-barangligi, salmog'i, leksik va semantik boyligi bilan belgilanadi" [Ziyotova, 2010]. Abdulla Qodiriy so'zdan foydalanish mahorati yetuk, tilga nisbatan munosabat borasida talabchan ijodkordir. U shunday yozadi: "Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat sanalmaydi. So'z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin. So'z so'zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak. Yozuvchining o'zigina tushunib, boshqalarning tushunmasligi katta ayb, fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so'z va jumalarga yozuvda aslo o'rin berilmasligi kerak" [Qodiriy, 1969, 186].

Badiiy asarlarda ifodaviylikni, qahramon ichki kechinmalarini yaxshiroq qilib kitobxonlarga yetkazish uchun Abdulla Qodiriy asar davomida qahramonlar badiiy nutqini induviduallashtirishdan foydalangan. "Mehrobdan chayon" romanining qahramonlari avvalgi roman qahramonlaridan ancha farq qiladi. Bosh qahramonlar - Anvar va Ra'no, har ikkisi ham boy oilaning farzandlari emasdi. O'quvchiga ularni tanishtirishda, adib, eng avval, ularning savod darajasini mahorat bilan tasvirlagan. Anvar: o'n uch yoshida "Guliston" Sa'diydan har kuni bir necha banddan yodlar, o'n besh yoshida yaxshigina forsiyxon va bir daraja arab tiliga oshno edi (48). Bir qancha vaqtdan so'ng Muhammad Rajab munshiy qo'l ostida forsiycha va turkcha nomanavislik hunarlarini tamoman deyarlik o'rganib, tajribalik mirzolar qatoriga kiradi (54). Ra'no esa o'n to'rt yoshida maktab dasturining barcha darslarini bitirgan, masalan: diniy qismdan – "Haftiyak", "Qur'on", "Chahor kitob, So'fi Olloyor, "Maslaki muttaqin", adabiyotdan – Navoiyning barcha asarlari, devoni Fuzuliy ma'a Layli Majnun, Amiriy, Fazliy va shulardek chig'atoy-o'zbek katta shoirlarining asarlari; forsiydan - Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil, xusnixat, insho va boshqalar (22). Ularning har bir dialogik va monologik nutqlarini kuzatsak, naqadar ilmi, zukko, aqli charxlangan, fikri teran ekanliklariga guvoh bo'lamiz. Qodiriy shu yo'l bilan o'sha davr jamiyatida oddiy xalq mutlaqo savodsiz bo'lgan degan biryoqlama qarashni inkor etadi. Qahramonlar bilimi orqali o'sha davr xalqining ilmiy va madaniy darajasi biz o'ylagandan ko'ra yuqoriroq bo'lganini badiiy tarzda

ko'rsatadi. Tarixiy sharoitda fors tili ilm, adabiyot va devon ishlarida keng qo'llanilgan. Anvar va Ra'no obrazlari xalq orasida ham yuqori darajadagi ma'rifat mavjud bo'lganini yanada ochib beradi.

Ikkinchi darajali personajlar muhitni ochish va davrning tabiiy ko'rinishini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Qodiriy oddiy xalq tilini tasvirlar ekan: "digar", "ba'daz", "yaktak", "xokisor", "baharhol", "supa", "aztahidil", "domod", "paxsa", "gustoh", "kajraftor", "hamnishin", "noma", "istifoda", "mo'ychinak", "zer-zabar", "daromad", "zarxarid", "betamiz", "gumbaz", "qandil", "shohnishin", "kafshandoz", "xiromon", "boz", "buromad", "bordon", "kuloh", "pisar", "barkash", "padari arus", "obdasta", "havodis", "mardum", "zabon" kabi so'zlarni qo'llash orqali, ijtimoiy hayotda ham turkiy va forsiy leksika aralash holda iste'mol qilinganligini ko'rsatadi. Masalan:

"Maxdumning aztahidil "mohazarimiz bor edi" deb qistashig'a qarshi uzr aytib xayrlashdi"(29).

Aztahidil (forscha) – butun qalbning, yurakning tubidan; astoydil;

Mohazar (forscha) – tayyor, hozirlangan taom, ya'ni Maxdumning astoydil "tayyor taomimiz bor edi" deb qistashiga qarshi uzr aytib xayrlashdi.

Xususan, Solih Maxdum, Sultonali va Domla Niyoz nutqida turkiy va forsiy leksik birikmalar faol qo'llanilgan:

"...Lekin o'z umrimda bir gustoxlik qilmoqchiman"(Solih Maxdum,41).

Gustoxlik qilmoqchiman birikmasi tuzilish jihatdan qo'shma fe'l bo'lib, "gustox" so'zi forsha beodob, hurmatsiz, andishasiz ma'nolarini anglatadi;

" - Bo'stoni ma'rifat, gulshani haqiqat,- dedi Sultonali"(27).

Bo'stoni ma'rifat hamda gulshani haqiqat birikmalari tuzilish jihatdan izofali aniqlovchi birikma bo'lib, "bo'ston" forsha bog', mevali daraxtlar va gullar ekilgan obod maskan, "gulshan" fors tilidan gulzor, gullar ekiladigan joy degan ma'nolarni bildiradi. Mumtoz adabiyotda ular ko'pincha ramziy va poetik ma'noda qo'llanadilar;

"- Davlati shahanshoi ro'z-baro'z afzun, dushmanoni amir al-mo'min sarnigun boshad..."(Domla Niyoz, 80).

Davlati shahanshoi ro'z-baro'z afzun birikmasi izofali aniqlovchi birikma bo'lib, podshohning davlati kundan-kunga ortib borsin degan ma'noni anglatadi. Tarkibiy qismidagi "ro'z-baro'z" (kundan kunga), "afzun" (ortuvchi, ko'payuvchi) so'zlari fors tiliga tegishlidir. Yuqoridagi "sarnigun boshad" iborasi ham fors-tojik adabiyotidan o'zlashgan bo'lib, xafa bo'lgan, hayrat yoki vahima ichida bo'lgan holatlarni ifodalashda ishlatiladi.

Shuningdek, qahramonlar ba'zi o'rinlarda fors adabiyotining yetuk namoyandalari - Umar Xayyom va Sa'diy Sheroziy asarlaridan she'riy parcha keltiradilar. Bu ularning nafaqat dunyoqarashi keng, balki klassik she'riyatga oid bilimga ega ekanliklarini ham ko'rsatadi. Iqtiboslar orqali personajlar o'z tajribasi va donoligini boshqalarga yetkazadilar:

“Hudovando, bigardoniyy baloro,
Zi ofatho, nigoh doriy tu moro.

Ba haqqi hardu giso‘yi Muhammad,
Zabun gardon zabardastoni moro.”(80);

“ - Menim hukmimga qanoat qilmasangiz, hikmatga qarang. Shayx Sa‘diy:
“Bisho‘y, ey xiradmand, az on do‘st dast,
Ki bo dushmanoton buvad hamnashast”,- deydilar...” (168)

Qodiriy asarda saroy muhitini, undagi voqealar rivojini ochib berishda, ijtimoiy-siyosiy termin hisoblanuvchi mansab-martaba leksemalaridan unumli foydalangan. Ular davlat hujjatlarini, yuqori martabani yoki turli kasb egalarini ifodalovchi terminlar hisoblanadi. Quyida ayrimlarining tasnifi keltirilgan:

Devonxona fors tilidan o‘zlashgan “devon” so‘ziga yana bir forscha “xona” o‘zlashma so‘zi qo‘shilib, “davlat idorasi”, “sud mahkamasi” ma’nosini bildiradi. Xonliklar davridagi davlat idoraxonasiga nisbatan qo‘llanilgan istilohdir.

Sarmunshiy fors tilidan o‘zlashgan “sar” — bosh, “munshiy” — kotib, yozuvchi. Davlat devonida rasmiy yozishmalar uchun mas’ul mansab nomi;

Dahboshi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “dah” — o‘n, “boshi” — boshliq degan ma’noni bildiradi. O‘nlik bo‘linmaning sardori, askarlarni boshqarish va tartibga solish bilan shug‘ullangan;

Daftardor fors tilidan o‘zlashgan “daftar” — yozuv kitobi, hujjatlar to‘plami, “dor” — egasi, yurituvchi. Soliq, moliya, yer-mulk va xazina hisob-kitoblarini yurituvchi oliy kotib;

Oftabachi fors tilidan o‘zlashgan “oftoba” — suv quyiladigan idish, “-chi” — kasb bildiruvchi qo‘shimcha. Saroy xizmatkori, marosimlarda qo‘l yuvish uchun oftoba tutuvchi, tahorat va yuvinish uchun xizmat qiluvchi shaxs ma’nosini bildiradi;

Meshkob fors tilidan o‘zlashgan “meshk” — teridan yasalgan suv idishi, “ob” — suv. Suv tashuvchi yoki suv olib yurish bilan shug‘ullanuvchi xizmatkor, ko‘proq saroy va xo‘jalik xizmatiga oid lavozim nomi sifatida ishlatilgan.

Dodras fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, “dod” — adolat, davo, “ras” — yetkazuvchi degan ma’noni bildiradi. Aholi arzlarini tinglovchi, shikoyatlarni ro‘yxatga oluvchi va sud ishlari bo‘yicha yordamchi amaldor.

Noma fors-tojik tilida “xat”, “maktub” degan ma’noni bildirib, xonliklar davri ijtimoiy-siyosiy doirada rasmiy yozishma, maktub tarzida ishlatilgan.

Yuqoridagi tahlilimiz Xonliklar davrida muhim bo‘lgan davlat boshqaruvi terminlarining aksariyati fors tili o‘zmashlari ekanligini ko‘rsatadi. Shubhasiz, ushbu ko‘rinish tilning naqadar muhim o‘ringa egaligini bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. “Mehrobdan chayon” romani nafaqat tarixiy va g‘oyaviy qiymati bilan, balki til xususiyatlari bilan ham o‘rganishga arziydi. Qahramonlar nutqidagi fors-tojik leksik qaramlar ularning ilmiy va madaniy darajasini, jamiyatdagi savod va ma‘rifat miqyosini ochib beradi. Davlat boshqaruvi bilan bog‘liq terminlar esa bu tilning siyosiy va ijtimoiy ahamiyatini namoyon qiladi. Shu tariqa, Abdulla Qodiriy o‘sha davr adabiy tili unsurlaridan mahorat bilan foydalanib, XIX asrdagi ikki tilli muhitni tasvirlash orqali romanda tarixiy haqiqatni ishonarli talqin qilishga erishgan. “Mehrobdan chayon” romanining leksik qatlamini etimologik nuqtayi nazardan o‘rganish o‘zbek tilining tarixiy tadriji haqidagi tadqiq qilish uchun ham, adabiy aloqalar va madaniy muhitni o‘rganish uchun ham qimmatli manba bo‘lishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 48, 54, 22, 27, 29, 41, 80, 168, 398 – sahifalar.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilinig etimologik lug‘ati. III. (fors-tojikcha, tojiklar birliklar va ular bilan hosilalar). – Toshkent: Universitet, 2009. – 284 b.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – B. 57.
4. Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” asarida ko‘chim va uning turlari // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol 2, Issue 4/2, April 2022.
5. Ziyotova S. “Mehrobdan chayon” asari leksikasining statistik tahlili // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2, Issue 4/2, April 2022.